

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ATAMURATOV XUSHNUDBEK XAYITBAYEVICH

**FUTZAL HAKAMLARINI O‘YIN JARAYONIDA OPTIMAL POZITSIYA
TANLASHDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление докторской диссертации по педагогическим наукам

Table of contents of doctoral dissertation in pedagogical sciences

Atamuratov Xushnudbek Xayitbaevich

Futzal hakamlarini o‘yin jarayonida optimal pozitsiya tanlashda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati.....3

Атамуратов Хушнудбек Хайитбаевич

Методика развития физической подготовленности судей по футзалу для выбора оптимальной позиции в процессе игры.....31

Atamuratov Khushnudbek Khayitbayevich

Methodology for developing the physical fitness of futsal referees to choose the optimal position during the game59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ATAMURATOV XUSHNUDBEK XAYITBAYEVICH

**FUTZAL HAKAMLARINI O‘YIN JARAYONIDA OPTIMAL POZITSIYA
TANLASHDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped5237 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida www.jtsu.uz hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali manzilida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Arzikulov Mukum Uralovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Korobeynikov Georgiy Valerevich

biologiya fanlari doktori, professor

Komilov Jamoliddin Karimjonovich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” “_____” soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-27-27, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: jtsu@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Madaniyat saroyi binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.

(2024-yil “___” _____ da ___raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mini-futbol (futzal) o'yinining sur'ati futzalchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasining doimiy suratda oshib borishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu bilan birga futzalchilarning maydondagi to'p bilan va to'psiz harakatlari ko'lami jadal o'sib bormoqda. Ushbu omil futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarligini doimiy yuqori darajada ushlab turishni talab qilmoqda. O'yin shiddatining oshib borishi hakamlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va o'quv mashg'ulotlari sifatini yaxshilash talabini keltirib chiqarmoqda. Futzal hakami o'yin epizodlarida optimal pozitsiyani tanlashi va vaziyatlarni ketma-ketligida yuzaga keladigan jarayonlarni o'yin qoidalarini tez tahlil qilgan holda to'g'ri qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda futzal hakamlarining o'yin faoliyatida harakat samaradorligini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha ko'plab tajribalar to'plangan bo'lib ularning mashg'ulot yuklamalarini me'yorlash, tezlik va murakkab kombinatsiyalardan iborat futzal uchrashuvlariga munosib tarzda jismoniy vosita va yuklamalarni optimallashtirish dolzarb muammo bo'yicha dunyoda turli tajribalar olib borishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Jahonda tadqiqotchi olimlar tomonidan futzal hakamlarini tayyorlashda jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, ularni psixofiziologik tayyorlash, taktik tafakkurini rivojlantirish, funksional ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Futzal sport turi rivojlangan mamlakatlarda shiddatli o'yinlarga moslashish uchun hakamlarning zamonaviy futzal o'yinlarini boshqarish imkoniyatlari ilm-fan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq. Futzal hakamlarini o'yin jarayonida optimal pozitsiya tanlashda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, mashg'ulot vositalari va usullarini doimiy takomillashtirish zarur bo'lib, futzal hakamlarini o'yin jarayonida optimal pozitsiya tanlashda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati sifatida o'zining oqilona yechimlarini taqozo etmoqda.

Respublikamizda yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida hakamlarning jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish va o'yin jarayonida hakamlar optimal pozitsiya tanlab tezkor qaror qabul qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Mamlakatimizda futzal hakamlarini tayyorlash, hakamlik sifatini yaxshilash, futzal hakamlarning maydondagi harakat samaradorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish"¹ ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Futzal bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionati uchrashuvlarida zamonaviy vositalar, ya'ni "VAR" (video yordamchi hakam) tizimini joriy etish kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabini qo'ymoqda. Ushbu zaruriyat asosida hakamlarning o'yin natijasiga bevosita ta'sir qiladigan xatolarning kamayishiga erishib kelmoqda. Futzal hakamlarini tayyorlash va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy usullarini tatbiq qilish jarayoni tashkil etilgan. Biroq, hakamlarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrda, PF-5887-sonli O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 6 dekabr, 252-son.

va rivojlantirish, o'yin jarayonida optimal pozitsiya tanlashda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati ishlab chiqilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 5-noyabrda PQ-5282-son "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil 7-aprelda PQ-115-son "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil 3-noyabrda PQ-355-son "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Biz tomonimizdan mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sport sohasida hakamlarning tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mamlakatimiz olimlaridan I.X.Qutlimuratov chidamkorlikni ustuvor rivojlantirish asosida futbol hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish mavzusidagi dissertatsiyasi futbol hakamlarining faoliyati bilan bog'liq yagona ish hisoblanadi². Sh.X.Isroilov Voleybol sporti hakamlarining harakat faoliyatini o'rgangan bo'lib, bu dissertatsiya ishlari respublikada hali sport hakamligi bo'yicha ilmiy ishlarga ehtiyoj balandligidan dalolat beradi. Shu bilan birga Sh.I.Shojalilov va O.Yo.Bektorovlar tomonidan futbol hakamlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma yaratilgan³. Futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarligi oshirish va nazorat qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahon tajribasida yetarlicha amalga oshirilgan bo'lib ularni tahlil qilish muammoni hal etishga qaratilgan fikrlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

MDH olimlari tomonidan uchrashuvlarni boshqarish paytida hakamlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar ko'pincha tayyorgarlikning yetarli darajada

² Qutlimuratov I.X. Chidamkorlikni ustuvor rivojlantirish asosida futbol hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. PhD diisertatsiyasi avtoreferati. 2022. – 72 b. Israilov Sh.X Voleybol sporti hakamlarining xarakat faoliyatini o'rganish «Ita-Press»2014.B.238-249;

³ Sh.I. Shojalilov va O.Yo.Bektorov Futbol bo'yicha hakamlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari o'quv-uslubiy qo'llanma. 2015. – 42 b

emasligi bilan bog'liqligi bo'yicha S.G.Xusainov, futbolda professional hakamlarni tayyorlashning dolzarb masalalari bo'yicha A.N.Spirin, futbol musobaqalarida hakamlik qilishda harakat va pozitsiyani tanlash bo'yicha hakamlarning jismoniy tayyorgarligi va professional hakamlik tizimidagi imkoniyatlarini amalga oshirish shartlari bo'yicha A.D.Budogoskiylar tadqiqot olib borgan. Bundan tashqari futbol hakamlarining professional tayyorgarlik jarayonini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini bo'yicha, dastlabki mashg'ulotlardagi futbol hakamlarining ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha Ye.A.Turbin, futbol hakamlarining kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha A.V.Shibayevlar⁴ ham tadqiqotlarni amalga oshirib ushbu sohaning ilmiy negizini shakllantirishga ulkan hissa qo'shganlar.

Dunyoning futzali taraqqiy etgan davlatlarida ham futzal hakamlarning harakat faoliyatini nazorat qilish bo'yicha qator tajribalar o'tkazilgan. Ayniqsa futzal hakamlarining fiziologik va psixologik tayyorgarligi bo'yicha boy tajriba to'plangan. Jumladan P.Folkesson, C.Nyberg, H.Ahmed, G.Davison, D.Dixon, C.Castagna, G.Abt, S.D'Ottavio⁵ kabi olimlar aynan shu yo'nalishga oid tajribalarni amalga oshirganlar. Ayni paytda adabiyotlarda futzal hakamlarining yillik sikldagi jismoniy tayyorgarligining ilmiy asoslangan metodikasi mavjud emasligi o'tkazilgan tahlillarda o'rganildi. Ularni qo'llash uchun yetarli ilmiy asosga ega bo'lmagan mashg'ulot rejalari va uslubiy yo'riqnomalarining faqat kichik qismlari mavjud xolos. Shu bilan bir vaqtda, futzal hakamlarining professional harakat faoliyatini tavsiflovchi ko'plab masalalar yetarlicha o'rganilmay qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik maxsus kompleksini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi lozim bo'lgan hakamlarning harakat faoliyatini tavsiflovchi ma'lumotlar to'liq keltirilmagan. Futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini sinovdan o'tkazish uchun tavsiya etilgan nazorat me'yorlari professional faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi. O'yin vaqtida hakamning faoliyati maydonda doimo o'zgarib turadigan vaziyatlar bilan bog'liq bo'lib, psixofiziologik sifatlarni namoyon etishni talab etadi. Mazkur me'yorlar esa, asosan optimal pozitsiya tanlashni namoyon qilish bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlikni aks ettiradi. Bundan kelib chiqadiki, futzal hakamlari uchun ularning harakat faoliyati xususiyatlarini aks ettiruvchi yangi nazorat me'yorlarini ishlab chiqish yoki

⁴Xusaïnov S.G. Aktualnye voprosy podgotovki professionalnykh arbitrov v futbole // Teoriya i praktika futbola. 2001. № 1. S. 21-23.; Spirin A.N. Dvizhenie i vybor pozitsii v sudeystve sorenovaniy po futbolu. M., 2003. - 37 s.; Budogoskiy A.D. Fizicheskaya podgotovlennost i professionalnyy intellekt arbitrov kak usloviya realizatsii vozmozhnostey diagonalnoy sistemy sudeystva // Teoriya i praktika futbola. M., 2004. №3. - S.20-24; Turbin E.A. Formirovaniye spetsialnykh navykov futbolnykh arbitrov nachalnoy podgotovki: avtoref. dis. kand. ped. nauk. Makhovka, 2009. - 30 s.; Shibaev A.V. Razvitiye professionalno znachimykh psixofiziologicheskikh kachestv futbolnykh arbitrov: avtoref. dis. kand. ped. nauk. Makhovka, 2009. - 23 s.

⁵Folkesson, P., Nyberg, C., (2002). Soccer referees' experience of threat and aggression: Effects of age, experience, and life orientation on outcome of coping strategy. *Aggressive Behavior*, 28, 317-327; Castagna C., Abt G., D'Ottavio S. (2007) Physiological aspects of soccer refereeing performance and training. 2007. - Pg. 625-646.Ahmed H., Davison G., Dixon D. (2017) Analysis of activity patterns, physiological demands and decision-making performance of elite Futsal referees during matches. 2017. - Pg. 737-751.;

amaldagi meyorlarga o'zgartirishlar kiritish zarur. Bu me'yorlarning aksariyati hakamlarning o'yin improvizatsiyasi sifati asosida boshqa tayyorgarlik turlari bilan mutanosib ko'rinishda bo'lmog'i zarur. Zero jismoniy holatni yaxshilash o'yin vaziyatlarining turli qismlaridagi har xil shiddatda namoyon bo'ladigan epizodlarni doimiy nazorat qilish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishining mavzusi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining "Milliy terma jamoa a'zolarining o'quv-mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatini tahlil qilish hamda sportchilarning texnik-taktik va maxsus ish qobiliyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan rivojlantirishni yo'lga qo'yish" mavzu doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi futzal hakamlarining o'yin mavsumi dinamikasida jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

futzal hakamlarining musobaqalarda samarali faoliyat olib borishda maxsus chidamlilik qobiliyatini oshirishga qaratilgan o'yin jarayonidagi turli harakatlardan iborat maxsus majmua ishlab chiqish;

o'yin davomidagi bahsli vaziyatlarga maydon chizig'i bo'ylab qisqa vaqt davomida yetib borishi uchun futzal hakamlarining tezkorlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan turli masofalarga tezlanishlardan iborat maxsus kompleksni ishlab chiqish;

futzal hakamlarining o'yin davomida ishchanlik qobiliyatini pasaytirmagan holda o'z faoliyatini yuqori shiddatda olib borishda umumiy chidamkorlik darajasini oshiruvchi aerob-anaerob shiddat zonasida bajariladigan yuklamalardan iborat maxsus majmuasini ishlab chiqish;

futzal hakamlarining hakamlik faoliyatini mavsum davomida samarali olib borishda ularning jismoniy va funksional ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan yillik tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida futzal bo'yicha hakamlar bilan olib boriladigan o'quv-mashg'ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini futzal hakamlarining o'yin jarayonida optimal pozitsiya tanlashda maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish vositalari va uslublaridan foydalanish jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovi, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, ekspert baholash uslubi, instrumental uslub (innovatsion raqamli texnologiyalar), pedagogik tajriba, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

futzal hakamlarining maxsus chidamlilik qobiliyati darajasini rivojlantirish maqsadida o'yin jarayonida qo'llaniladigan shiddatli harakatlarga tayyorlash va baxsli vaziyatlarni nazorat qilgan holda optimal pozitsiyalarni tanlash hamda musobaqalardagi hakamlik faoliyati takomillashtiruvchi kompleks orqali

shiddatli, kombinatsion va variativ harakatlardan iborat turli masofalarga tezlanish va o'z vaqtida to'xtalishlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

futzal hakamlarining tayyorgarlik mashg'ulotlarida maydon yon chizig'i bo'ylab maksimal tezlikda turli o'zgaruvchan qisqa masofalarga tezlanishlardan iborat bo'lgan maxsus sprint yugurishlarni jamlagan kompleksini qo'llash natijasida yuqori shiddatli o'yindagi baxsli vaziyatlarni to'g'ri baxolash, jamoalarning hujum va qarshi hujum harakatlariga nisbatan optimal pozitsiyalarni zudlik bilan tanlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

har bir 20 metrni 7 soniya davomida o'yin shiddatiga mos tezlikda o'zgaruvchan progressiv va regressiv tarzda yugurib o'tish kabi usullardan tashkil topgan maxsus kompleksi orqali futzal hakamlarining o'yin yakuniga qadar ishchanlik qobiliyatini pasaytirmagan xolda hakamlik faoliyatini yuqori shiddatda olib borish hamda umumiy chidamlilik qobiliyati takomillashtirilgan;

musobaqalarda futzal hakamlarining hakamlik faoliyatini yuqori shiddatli o'yin vaziyatlarida samarali olib borish maqsadida ishlab chiqilgan tayyorgarlik dasturi orqali hakamlik faoliyatini samarali olib borishda optimal rakursda pozitsiyalarni tanlash imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yillik tayyorgarlik sikllarida futzal hakamlarining umumiy chidamkorlik darajasini oshirishga qaratilgan samarali kompleks yaratilgan;

futzal hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan turli harakatlardan iborat va kombinatsion tarzda qo'llaniladigan maxsus komplekslar ishlab chiqilgan;

yillik tayyorgarlik sikllarida futzal hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish dasturi ishlab chiqilgan va samaradorligi tajribada ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi respublikamiz hamda chet el olimlari, shuningdek, xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabbiylarning fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida futzal hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun tanlangan vositalar va ularni qo'llash uslublarining ilmiy asoslanganligi ushbu sohadagi ma'lumotlarni, nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar futzal hakamlarning mashg'ulotlarini tashkil etishda yuklamalarni me'yorlash, maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini

nazorat qilish uchun ishonchli testlardan foydalanish, tayyorgarlikning turli davrlari va bosqichlaridagi mikrosikllarni tuzishda mashg'ulot variantlarini qo'llash, musobaqalarda futzal hakamlarining harakat faoliyati samaradorligini oshirishga imkon berishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Futzal hakamlarining maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish orqali o'yin jarayonida bahsli vaziyatlarda optimal pozitsiyani tanlashga qaratilgan tajriba tadqiqotlari asosida:

futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini o'yin jarayonida tez va to'g'ri qaror qabul qilish uchun optimal pozitsiyalarni tanlashda muhim bo'lgan maxsus chidamlilik qobiliyatini oshirishga qaratilgan turli musobaqalardagi hakamlik faoliyatida harakatlanishlarni videotahlil qilish asosida shiddatli, kombinatsion va variativ harakatlardan turli usullardagi harakatlarni tezlanish va to'xtashlar (oldinga yugurish, yonlamachasiga, oldinga yuzlanib ortga yugurish) "Variative Shuttle" maxsus kompleksini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar Xorazm viloyati Futbol Assotsiatsiyasi futzal hakamlarida qo'llanildi. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-avgustdagi 03-16/8238-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida FIFA tomonidan ishlab chiqilgan maxsus "ARIET" testini topshirishda maxsus chidamkorligi 17,9% ga oshgan;

futzal hakamlarining yuqori shiddatli o'yindagi bahsli vaziyatlarni to'g'ri baholash va unga asosan o'z vaqtida qaror chiqarishga tayyor bo'lish asosida jismoniy mashg'ulot jarayonida maydon yon chizig'ida turli pozitsiyalarga tezkorlik bilan yetib borish uchun o'zgaruvchan qisqa masofalarga tezlanib yugurishlardan iborat bo'lgan maxsus "Schuttle" kompleksi amaliyotda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Xorazm viloyati Futbol Assotsiatsiyasi futzal hakamlarining amaliy mashg'ulotlarida qo'llanildi. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-avgustdagi 03-16/8238-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, futzal hakamlarining FIFA tomonidan qisqa (20 metr) masofaga tezkor yugurish me'yorining ko'rsatkichi $0,23 \pm 0,06$ soniyaga 14,3% ga oshgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Futbol Assotsiatsiyasi futzal hakamlarining o'yin davomida ishchanlik qobiliyatini pasaytirmasdan yuqori shiddatda olib borish hamda yuzaga keladigan bahsli vaziyatlardagi qoida buzilish holatlarini turli pozitsiyalardan samarali nazorat qilish hamda umumiy chidamlilik qobiliyatini oshirish uchun har bir 20 metrni 7 soniya davomida yugurib o'tish (20 metrdan 160 metrgacha ortib boruvchi va 160 metrdan 20 metrga kamayib boruvchi, dam olish oralig'i 20 m (soniya)) o'zgaruvchan progressiv va regressiv "Pyramid" kompleksi bo'yicha taklif va tavsiyalar futzal hakamlarining o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-avgustdagi 03-16/8238-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi, ya'ni submaksimal zonada o'zgaruvchan shiddatli yuklamani progressiv va regressiv mokisimon yugurish hajmi 420 metrga oshgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Futbol Assotsiatsiyasi futzal hakamlarining faoliyatini samarali olib borish uchun ishlab chiqilgan "Variative Shuttle",

“Schuttle” hamda “Pyramid” maxsus komplekslaridagi yuklamalarni mikro va mezosikllarda kombinatsion tarzda mavsum davomida qo‘llash orqali jismoniy va funksional ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan yillik tayyorgarlik dasturi bo‘yicha taklif va tavsiyalar Futbol Assotsiatsiyasi hakamlarining mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 20-avgustdagi 03-16/8238-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, hakamlarning funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, anaerob zonada ish qobiliyatini tushirmagan holda hakamlar faoliyatini olib borish 8,52%ga o‘sgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etib, 17 ta jadval, 22 ta rasm va joriy etish dalolatnomalarini o‘z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan. Ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarligida mashg‘ulot dasturlarining tuzilishi, mazmuni va muammolarning ilmiy tadqiq etilish holati”** deb nomlangan birinchi bobida futbol hakamlarini tayyorlashdagi muammolar, bosh va yordamchi hakamlar mashg‘ulot jarayoni xususiyati va yo‘nalishi bo‘yicha har xil vosita va usullardan foydalanish, vositalarini tasniflash va o‘quv-mashg‘ulot jarayonida aniq atamalar qo‘llash, bosh va yordamchi hakamlarda chidamkorlikga yo‘naltirilgan vositalarning me‘yor va hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keng yoritib berilgan.

Futzal hakamligi bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish jarayonida hakamlarning maxsus jismoniy tayyorgarligida chidamlilik qobiliyatini aniqlash bo‘yicha me‘yorlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da uni amaliyotga joriy qilish muammoli jihat bo‘lib qolmoqda. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha yangi nazorat me‘yorlarining amaliyotga joriy qilish bo‘yicha mavjud tavsiyalar mamlakatimizda hakamlarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etilmay qolayotganligi bu tizimda islohotlar olib borishga ehtiyoj borligini belgilaydi.

A.N.Spirin fikriga ko'ra, hakamning qarorlari asosiy nazorat richagi bo'lib, ular to'liq kommunikativ shaklda belgilangan mezonlarga va yondashuvga asoslangan holda qabul qilinadi. Hakamning mezonlar yondashuvi asosida qabul qilgan qarorlari o'yin ishtirokchilariga aloqa bog'lamalari orqali yetkaziladi. Hakamning o'z qarorini qanday qabul qilganini baholash bo'yicha hakamlar nazoratchisi ish faoliyati olib borilishi va o'z hisobotida aks ettirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hakamlik paytida hakamning harakati ma'lum bir vektorga asoslangan futzal musobaqalarida optimal pozitsiyani tanlashga alohida e'tibor qaratilishi haqida ham batafsil yoritilgan.

Futzal hakamlarining faoliyati futbol hakamlari faoliyati bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda maydon bo'ylab harakatlanish trayektoriyalari ajralib turishi ham ko'rsatilgan. Qiyosiy tahlilda futbol hakamlari diagonal harakatlanish tizimi imkoniyatlaridan keng foydalanishadi va ularning shiddatli harakatlari futzal hakamlarining harakatlaridan mutlaq farqli ekanligi o'z isbotini topgan. Futbol hakami bitta yordamchi hakam bilan doimo vizual aloqani saqlab turish, shuningdek, sodir bo'ladigan o'yin epizodlarini to'g'ri baholash uchun diagonal vektordan harakat qilib, eng optimal holatni egallash lozim ekanligi kabi ma'lumotlar bilan asoslanadi. Futzal hakami esa maydonning qarama-qarshi yon chizig'i bo'ylab harakatlanayotgan hakam bilan tandem tarzda shiddatli o'yinni nazorat qilish omillari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida hakamlarning maxsus jismoniy tayyorgarlikda chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, anketa so'rovi, ekspert baholash usuli, instrumental usullari (innovatsion raqamli texnologiyalar) pedagogik tajriba, matematik statistika usublari tadqiqotning tashkil qilish yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.


Mazkur dissertatsiya tadqiqotlarini tashkil etish 3 ta bosqichda amalga oshirilgan:

I bosqichda (2021 yil) mavzuga oid me'yoriy hujjatlar, yillik tayyorgarlik dasturlari rejalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tahlil asosida o'rganilgan ilmiy uslubiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari, yetakchi olimlarni fikr mulohazalari asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilanib, tadqiqot usublari hamda dastlabki tadqiqotlar o'tkazilgan.

II bosqichda (2021-2022 yillarda) tajriba oldi sinovlari o'tkazilgan. Hakamlarning yillik tayyorgarlik dasturlari, mashg'ulotlar soni, mashg'ulotlar hajmi, mashg'ulot shiddati, mazmuni va yo'nalishi, musobaqalar natijasi jismoniy va funksional tayyorgarligi hamda ularni shakllanish dinamikasi o'rganilib, pedagogik kuzatuv ostiga olingan. Ushbu bosqichda hakamlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ya'ni chidamlilik qobiliyatlarni takomillashtirishga qaratilgan vositalar va ularning hajmi tahlil qilingan.

III bosqichda (2023-2024 yilgacha) pedagogik tadqiqot o‘tkazilgan. Pedagogik tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlariga O‘zbekiston futbol hakamlari markazining 41 nafar futzal hakamlari jalb qilingan. Hakamlarning maxsus jismoniy tayyorgarligida chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar ta’siri pedagogik tadqiqotda ya’ni sinovlar orqali aniqlangan. Bundan tashqari ularning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari o‘rganilib, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan uslubiyat samaradorligi olingan natijalarning matematik statistik tahlili asosida o‘z tasdig‘ini ishonchli darajada topgan hamda dissertatsiya ishi belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning **“Futzal hakamlarini innovatsion metodlardan foydalangan xolda jismoniy tayyorgarlik darajisini oshirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish va foydalanish uslubiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida dastlab, O‘zbekiston futbol hakamlari markazi hakamlari va mutaxassislari o‘rtasida o‘yin davomida optimal pozitsiyalarni tanlashda jismoniy tayyorgarlik darajasi qay darajada muhimligi va qaysi qobiliyatlarni ustuvorligi bo‘yicha anketa so‘rovnomasi o‘tkazilgan va ularga berilgan javoblar asosida komplekslar ishlab chiqishga qaror qilingan.



1-rasm. Anketa so‘rovnomasi bo‘yicha olingan javoblar (%)

Pedagogik tadqiqot boshida tadqiqotga jalb etilgan 41 nafar futzal hakamlari nazorat va tajriba guruhlariga saralanib olinishi uchun “ARIET” test bo‘yicha sinovdan o‘tishdi va ulardan quyidagi natijalar olindi. Olingan natijalar bo‘yicha 41 nafar hakamning 24 nafari ushbu testni samarali topshirib bir biriga yaqin bo‘lgan natija ko‘rsatib nazorat va tajriba guruhlariga saralanib olindi. Tadqiqot boshida nazorat va tadqiqot guruhining oraliq farqini aniqlash maqsadida FIFA tomonidan ishlab chiqilgan “ARIET”, “Sprint 2x20” va “CODA” testlari bo‘yicha sinovlar qabul qilindi va quyidagi natijalar olingan.

Pedagogik tadqiqot boshida TG va NG futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlovchi test natijalari statistik xarakteristikalarining solishtirma natijalari


T/r	Nazorat testlari	Nazorat guruhi (n=12)			Tajriba guruhi (n=12)			AO'	NO'	t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %				
1.	2x20 m.ga yugurish 1-urinish (3.30 s)	3,24	0,28	8,65	3,25	0,29	8,98	0,01	0,37	0,10	>0,9
2.	2x20 m.ga yugurish 2-urinish (3.30 s)	3,27	0,32	9,63	3,22	0,32	9,97	0,05	1,53	0,39	>0,6
3.	CODA test (10.00 s)	9,69	0,84	8,67	9,79	0,88	8,95	0,10	1,03	0,29	>0,7
4.	ARIET test (9.50 s)	600,49	57,9	9,64	595,26	59,27	9,96	5,23	0,87	0,22	>0,8

1-jadvalga asosan Sprint 2x20 test natijalarida ko'rinib turibdiki futzal hakamlari 20 metr masofani 2 ta urinish orqali bajarish talab etilgan. Nazorat guruhi vakillari ushbu testni 1-marotaba bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $3,24 \pm 0,28$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa 2-marotaba $3,27 \pm 0,32$ soniyaga teng bo'lganligi aniqlandi. Tajriba guruhi vakillari 1-marotaba mazkur mashqni bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $3,25 \pm 0,29$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa 2-marotaba $3,22 \pm 0,32$ soniyaga teng bo'lganligi aniqlandi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki tadqiqot va nazorat guruhidagi ko'rsatkichlar bir biridan deyarli farq qilmayotganligi matematika statistika usuli yordamida aniqlandi.

CODA test natijalari bo'yicha shuni ko'rishimiz mumkinki futzal hakamlari jami 36 metr masofani 10 metrga tezkor yugurish va 8 metr masofaga mokisimon tarzda yonlamachasiga haraktlanib va 10 metr masofa tezkor yugurish orqali start/finish chizig'iga 10 soniya davomida yetib kelishlari talab etiladi. Tadqiqot boshida nazorat guruhi vakillari ushbu testni bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $9,69 \pm 0,84$ soniyaga teng ekanligi aniqlangan bo'lsa, tajriba guruhi vakillari mazkur testni bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $9,79 \pm 0,88$ soniyaga teng natija qayd etildi. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki tadqiqot va nazorat guruhidagi ko'rsatkichlar bir biridan farq qilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

ARIET testi bo'yicha futzal hakamlari FIFA tomonidan qo'yilgan me'yorni bajarishdi, ammo ishtirokchilar orasida birmuncha farqli natijalar aniqlandi, masalan pedagogik tadqiqot boshida nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari $600,49 \pm 57,9$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, tadqiqot boshida tadqiqot guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari esa $595,26 \pm 59,27$ soniyani tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar shuni namoyish etmoqdaki pedagogik tadqiqot boshida ARIET test bo'yicha tadqiqot va nazorat guruhlari orasidagi farq deyarli yo'qligi

aniqlandi va olingan natijalar ikkala guruh ishtirokchilarini natijalari bir biriga yaqinligini ifodalab tadqiqotimizni davom ettirishimizga imkoniyat yaratdi.



2-rasm. “Variative shuttle” kompleksidagi shiddatli yugurish va harakatlarni bajarish tartibi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus “Variative shuttle” testi 10 sikldan iborat bo‘lib, umumiy davomiyligi 10 daqiqaga teng bo‘lgan turli shiddatli, kombinatsion va variativ (yonlamachasiga, orqamachasiga yugurish, tezlanish, mokisimon yugurish) harakatlardan iborat bo‘lib har bir siklning davomiyligi 1 daqiqaga teng hisoblanadi, bunda shiddatli yuklama 25 soniya, dam olish oralig‘i 35 soniyadan iborat. Ushbu “Variative shuttle” kompleksi 40 metr dan iborat bo‘lgan futzal maydoni o‘lchamiga teng masofada hakamlar tomonidan bajariladi.


2-jadval

“Variative shuttle” kompleksini tadqiqot boshida tajriba guruhi ishtirokchilari amaliy sport mashg‘ulotlariga tatbiq etish natijalari (n=12)

Marta va soniyalarda $\bar{X} \pm \sigma$		YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi (zarb/daq)	YuQS maksimal ko‘rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
10 marta	8,11 marta	181,47±13,69	196,8±17,94
600 soniya	486 soniya		

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki pedagogik tadqiqotimiz boshida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Variative shuttle” kompleksi maxsus yuklama tarzida tajriba guruhi ishtirokchilari ushbu yuklama bo‘yicha baholangan. “Variative shuttle” kompleks talablari 10 daqiqa davomida 10 marta (1 daqiqada 1 sikl, 25 soniya shiddatli yuklama, 35 soniya dam olish oralig‘i) bajarish talabi

qo'yilgan bo'lsa, ular tomonidan mazkur mashqni 8,11 marta 486 soniya bajarish amalga oshirilgan. Shunda YuQS o'rtacha ko'rsatkichi bo'yicha hakamlarning yurak qisqarishlar soni $181,47 \pm 13,69$ zarb/daqqa teng bo'lgan bo'lsa, YuQS maksimal ko'rsatkichi $196,8 \pm 17,94$ zarb/daqqa teng bo'lib ushbu yuklamani yakunladilar.




3-rasm. “Variative shuttle” kompleksida tajriba guruhi a’zolarining umumiy natijalar dinamikasi

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Variative shuttle” kompleks yuklamasi bo'yicha quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin. Tadqiqot boshida tajriba guruhining ishtirokchilari “ARIET” testi me'yorlarini qoniqarli darajada topshirgan bo'lsa ham futzal o'yinida yuqori shiddatli o'yin jarayonida samarali hakamlilik qilish uchun ularning jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasi yetarli darajada emasligi aniqlangan va biz tomonimizdan “Variative shuttle” kompleksi ishlab chiqilgan. Tajriba guruhidagi hakamlarning to'rtta ko'rsatkichi umumlashtirilgan ko'rinishda 3-rasmda ko'rsatilgan.

Futzal hakamlarining tezkorlik sifatini rivojlantirish uchun biz tomonimizdan maxsus “Shuttle” kompleksi ham ishlab chiqildi. Ushbu kompleks 5 sikldan iborat bo'lib, umumiy davomiyligi 10 daqiqaga teng bo'lgan turli xil (40 metrdan 10 metrgacha) masofalarda shiddatli mokisimon yugurish harakatlardan iborat bo'lib har bir siklda shiddatli yuklama 2 daqiqani tashkil etadi, har bir shiddatli takroriy seriyadan so'ng dam olish oralig'i 3 daqiqadan iborat.

Ushbu “Shuttle” kompleksi 40 metrdan iborat bo'lgan futzal maydoni o'lchamiga teng masofada hakamlar tomonidan bajariladi.




4-rasm. “Shuttle” kompleksini bajarish ketma-ketligi

3-jadval

“Shuttle” kompleksini tadqiqot boshida tajriba guruhi ishtirokchilari amaliy sport mashg‘ulotlariga tatbiq etish natijalari (n=12)

Marta va soniyalarda $\bar{X} \pm \sigma$		YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi (zarb/daq)	YuQS baland ko‘rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
5 marta	3,97 marta	189,72	197,83
600soniya	476,4 soniya		

Pedagogik tadqiqotimiz boshida hakamlarning tezkorlik sifatini aniqlash maqsadida “Shuttle” kompleksi qo‘llanildi va 4 ta ko‘rsatkich bo‘yicha quyidagi natijalar olindi. Ushbu kompleks 10 daqiqa ichida 5 tasikldan iborat bo‘lgan bo‘lsa hakamlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori maromli yugurishga 3,97 marta ya’ni 476,4 soniya bajarishdi. Tadqiqot guruhining o‘rtacha YuQS ko‘rsatkichi 189,72 zarb/daqqa teng bo‘lgan bo‘lsa, kompleksni bajarishda maksimal YuQS ko‘rsatkichi 197,83 zarb/daqqa teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).




5-rasm. “Shuttle” kompleksida TG a’zolarining umumiy natijalari

Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha umumiy ko‘rinish 5-rasmda keltirilgan va olingan natijalarga asoslanib o‘yin davomida hakamlarning mokisimon tarzda tezlanib yugurish tayyorgarligi yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Futzal hakamlarining umumiy chidamkorligini oshirish uchun biz tomondan “Pyramid” kompleksi ishlab chiqilgan. Mazkur kompleksning boshqa jismoniy tayyorgarlik vositalaridan farqi shundaki, futzal hakamlari yugurishda o‘rta maromni saqlab qolgan holda turli qisqa masofalardan iborat va mokisimon tarzda bajariladigan harakatlarni 160-170 YuQS zarb/daqqa teng bo‘lgan holda aerob aralash va anaerob zonalarda ish qobiliyatini yo‘qotmagan holda o‘z faoliyatini olib borishga qaratilgan.

Shunda har bir hakam ushbu “Pyramid” kompleksini bajarish uchun 10 daqiqa vaqt sarflaydi va uning ichida 7,30 daqiqa o‘rta maromda yuguradi va 2,30 daqiqa dam olish oralig‘i bilan umumiy xajm 1280 metrni bosib o‘tadi. 10 daqiqa davomida hakamlarning YuQS 160-170 zar/daqdan yuqori bo‘lib chidamkorlik sifatini oshirishga imkon yaratadi.



6-rasm. “Pyramid” kompleksini bajarish dinamikasi va ketma-ketligi


4-jadval

“Pyramid” kompleksini tadqiqot boshida tajriba guruhi ishtirokchilari amaliy sport mashg‘ulotlariga tatbiq etish natijalari (n=12)

Marta va soniyalarda $\bar{X} \pm \sigma$		YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi (zarb/daq)	YuQS maksimal ko‘rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
1280 metr	954,5 metr	179,36	191,46
600 soniya	447,43 soniya		

Pedagogik tadqiqotimiz boshida hakamlarning chidamkorlik sifatini aniqlash maqsadida “Pyramid” kompleksi qo‘llanildi va quyidagi natijalar olindi. Ushbu kompleks 10 daqiqa (600 soniya) ichida 1280 metr masofani har xil tezlanish va to‘xtalishlar bilan bajarishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa hakamlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori maromli yugurishga 954,5 metr ya’ni 447,43 soniya bajarishdi. Tadqiqot guruhining o‘rtacha YuQS ko‘rsatkichi 179,36 zarb/daqqa teng bo‘lgan bo‘lsa, kompleksni bajarishda maksimal YuQS ko‘rsatkichi 191,46 zarb/daqqa teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin (4-jadval).

Zamonaviy futzal sport turi o‘zining shiddati bilan ajralib turadi va o‘yinchilardan tezkorlik va maxsus chidamkorlik qobiliyatlarini talab etadi. Albatta ushbu shiddatli o‘yinga futzal hakamlari o‘z tezkorlik va maxsus chidamkorlik darajasi bilan ham mos bo‘lishlari lozim. Shuning uchun futzal hakamlaridan o‘yin davomida yuqori jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasi juda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ammo, FIFA tomonidan ishlab chiqilgan “ARIET” test sinovlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tayyorgarlik darajasini ishonarli tarzda aniqlash uchun yetarli emas. Shuning uchun biz tomonimizdan futzal hakamlarining umumiy chidamkorlik darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan “Pyramid” kompleksi bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar olindi.



7-rasm. “Pyramid” kompleksida umumiy natijalar dinamikasi

Har bir o‘yinni samarali olib borish uchun tayyorgarlik davrida jismoniy yuklamalarni ratsional taqsimlash va optimal nisbatlarini aniqlash lozim. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Pyramid” kompleksini bir mikrosiklda turli jismoniy vositalarni qo‘llashni inobatga olgan holda 1 va 2 marotaba qo‘llaniladi. Shunda tayyorgarlik mezosiklda 3-4 marotaba qo‘llanilgan va qo‘llanilish soni futzal hakamlarining boshqa jismoniy sifatlari hamda qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan komplekslarni qo‘llash evaziga mezosikl davomida o‘zgarib turadi (5-rasm).

Futzal hakamlarini turli musobaqalarga tayyorlashda ham shiddatli o‘yinga mos bo‘lishi uchun tayyorgarlik, musobaqa oldi va musobaqa davrlarini inobatga olgan holda musobaqa taqvim rejasiga asoslanib tayyorgarlik dasturi tuziladi. Shuni inobatga olish kerakki odatda futzal hakamlari O‘zbekiston chempionatini 16 ta turida hakamlik qilishadi. Ushbu 16 tur 7-8 oy davom etadi. Ushbu musobaqani tahlil qilganda musobaqa mavsumi sentyabr oyida boshlanib aprel oyida yakunlanadi. Shunda mavsum 2 aylanadan iborat bo‘lib 1 aylana sentabr-yanvar oylariga to‘g‘ri kelsa 2 aylana yanvar-aprel oylarida yakunlanadi. Futzal hakamlari albata ushbu aylanalar orasida o‘z jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda tiklanish jarayonini amalga oshirish maqsadida 2 marotaba o‘quv yig‘in mashg‘ulotlarini o‘tkazishadi. Musobaqaga 3 kun muddat qolganda hech qanday kompleks qo‘llanilmagan lekin hakamlarning sport formasi turli jismoniy vositalar orqali saqlanib qolishga qaratilgan. Turlar orasidagi dam olish oralig‘idagi mikrosikllarda 1 marotaba “Shuttle” 1 marotaba “Variative shuttle” va 1 marotaba “Pyramid” komplekslari qo‘llanilgan. Tayyorgarlik mikrosikllarida turli jismoniy vositalar qo‘llanilgan.

Dissertatsiyaning **“Futzal hakamlarini innovatsion metodlardan foydalangan holda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish dasturning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida futzal bo‘yicha hakamlarning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda yuklamalarni me‘yorlash vositalarini tatbiq qilish va natijalar orqali tajriba samaradorligini asoslashga qaratilgan materiallar aks ettirilgan.

Pedagogik tadqiqot boshida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Variative shuttle” kompleksi tadqiqot guruhining mashg‘ulotlar amaliyotiga joriy etilib musobaqa turlari orasidagi dam olish oralig‘idagi mikrosikllarda 1 marotaba “Variative shuttle” kompleksi qo‘llanilib tadqiqot oxirida quyidagi natijalar

olingan. Yillik tayyorgarlik dasturida “Variative shuttle” kompleksini bajarish hajmi 32 marotabaga teng bo‘ldi unda umumiy masofa hajmi 96,3 km ni tashkil etib, futzal hakamlari tomonidan qo‘yilgan talab ya’ni 10 ta takrorlashni to‘liq bajara olishdi.

5-jadval

“Variative shuttle” kompleksini tadqiqot so‘ngida tajriba guruhi ishtirokchilari amaliy sport mashg‘ulotlariga tatbiq etish natijalari (n=12)

Marta va soniyada $\bar{X} \pm \sigma$		YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi (zarb/daq)	YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
10 marta	9,81 marta	166,14	186,17
600 soniya	588,6 soniya		

5-jadvalda ko‘rinib turibdiki, “Variative shuttle” kompleksi bo‘yicha futzal hakamlarining ko‘rsatkichlari yaxshilangan va ushbu natijalar ularning funksional va jismoniy tayyorgarlik darajasi oshirilganidan darak beradi. Tadqiqot boshida qo‘yilgan talablardan ya’ni 10 marotabadan TGning o‘rtacha ko‘rsatkichi 8,11 marotaba teng bo‘lgan bo‘lsa, va undagi o‘rtacha YuQS ko‘rsatkichi 181,47 zarb/daqiqaga teng bo‘lgan bo‘lsa maksimal YuQSning o‘rtacha ko‘rsatkichi 196,8 zarb/daqiqaga ekanligini aniqlaganmiz, ammo yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan innovatsion komplekslar yordamida tadqiqot so‘ngida esa 10 marotabadan 9,81 bajarganligi va undagi YuQSning o‘rtacha ko‘rsatkichi 166,14 zarb/daqiqaga teng bo‘lgan bo‘lsa maksimal YuQSning ko‘rsatkichi 186,17 zarb/daqiqaga teng ekanligini aniqlangan.

6-jadval

Tajriba guruhining “Variative shuttle” kompleksi bo‘yicha tadqiqot boshida va tadqiqot so‘ngidagi ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

T/r	Nazorat testlari “Variative shuttle”	Tadqiqot boshida (n=12)			Tadqiqot oxirida (n=12)			AO‘	NO‘	t	P
		X	σ	V, %	X	σ	V, %				
1.	“Variative shuttle” kompleksini bajarish (marta)	8,11	0,81	9,96	9,81	0,93	9,48	1,70	20,96	4,78	<0,001
2.	YuQS o‘rtacha ko‘rsatkichi	181,47	13,69	7,54	166,14	12,27	7,39	15,33	8,45	2,89	<0,01
3.	YuQS maksimal ko‘rsatkichi	196,8	17,94	8,76	186,17	15,79	8,48	18,56	9,07	2,69	<0,05

Aynan shu ko‘rsatkichlarga asoslanib aytishimiz mumkinki “Variative shuttle” kompleksi maxsus ishchanlik qobiliyatini pasaytirmasdan yuqori maromli va shiddatli mashg‘ulotlarni bajarishda o‘z samarasini ko‘rsatdi. Fuzal hakamlarining musobaqalarga tayyorgarlik davrida “Variative shuttle”

kompleksini qo'llagach, funksional tayyorgarlik darajasi o'yin maromiga yaqinlashgan tarzda amalga oshirilib, ularning "Variative shuttle" kompleksini bajarish o'rtacha natijasi 1,7 martaga yaxshilandi, YuQS soni bo'yicha 15,33 zarb/daqiqaga yaxshilangani aniqlandi, maksimal YuQS soni esa 10,63 zarb/daqiqaga yaxshilangani aniqlandi. Pedagogik tadqiqot natijalari tadqiqotning boshi va oxiridagi olingan ko'rsatkichlar bo'yicha farqlari qiyosiy tahlil ko'rinishida 6-jadvalda berilgan.

7-jadval

"Shuttle" kompleksini tadqiqot so'ngida tajriba guruhi ishtirokchilaridan olingan natijalari (n=12)

Marta va soniyalarda $\bar{X} \pm \sigma$		YuQS o'rtacha ko'rsatkichi (zarb/daq)	YuQS maksimal ko'rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
5 marta	4,8 marta	172,1±12,88	181,43±15,47
120 soniya	115,2 soniya		

Innovatsion komplekslar yordamida tadqiqot so'ngida 5 marotabadan 4,8 marta bajarganligi va undagi YuQSning o'rtacha ko'rsatkichi 172,1 zarb/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa maksimal YuQSning ko'rsatkichi 181,43 zarb/daqiqaga teng ekanligini aniqlangan. Aynan shu ko'rsatkichlarga asoslanib aytishimiz mumkinki "Shuttle" kompleksi futzal hakamlarining tezlik sifatini rivojlantirib o'yin davomida bahsli vaziyatlarga nisbatan optimal pozitsiyalarni tanlash qobiliyatining oshganligini ko'rishimiz mumkin va bu jarayon futzal hakamlarining sport mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilgan (7-jadval).

8-jadval

Tajriba guruhining "Shuttle" kompleksi bo'yicha tadqiqot boshida va tadqiqot so'ngidagi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

T/r	Nazorat testlari "Shuttle"	Tadqiqot boshida (n=12)			Tadqiqot oxirida (n=12)			AO'	NO'	t	P
		X	σ	V, %	X	σ	V, %				
1.	"Shuttle" kompleksini bajarish (marta)	3,97	0,40	9,94	4,82	0,46	9,59	0,85	21,32	4,83	<0,001
2.	YuQS o'rtacha ko'rsatkichi	189,72	14,42	7,60	172,1	12,88	7,48	17,62	9,29	3,16	<0,01
3.	YuQS maksimal ko'rsatkichi	197,83	17,18	8,68	181,43	15,47	8,53	16,40	8,29	2,46	<0,05

Tadqiqot boshida qo'yilgan talablardan ya'ni 5 marotabadan TGning o'rtacha ko'rsatkichi 3,97 marotaba teng bo'lgan bo'lsa, va undagi o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 189,72 zarb/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa maksimal YuQSning o'rtacha ko'rsatkichi 197,83 zarb/daqiqaga ekanligini aniqlaganmiz. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan innovatsion komplekslar yordamida tadqiqot so'ngida esa 5 marotabadan 4,82 marta bajarganligi va undagi YuQSning o'rtacha ko'rsatkichi 172,1 zarb/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa maksimal YuQSning

ko'rsatkichi 181,43 zarb/daqiqaga teng ekanligini aniqlangan. Aynan shu ko'rsatkichlarga asoslanib aytishimiz mumkinki "Shuttle" kompleksi futzal hakamlarining tezlik sifatini rivojlantirib o'yin davomida bahsli vaziyatlarga nisbatan optimal pozitsiyalarni tanlash qobiliyatining oshganligini ko'rishimiz mumkin va bu jarayon futzal hakamlarining sport mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilgan. Futzal hakamlarining musobaqalarga tayyorgarlik davrida "Shuttle" kompleksini qo'llagach, funksional tayyorgarlik darajasi musobaqa o'yinidagi maromiga yaqinlashgan tarzda amalga oshirilib, ularning holati YuQS o'rtacha ko'rsatkichi 17,62 zarb/daqiqaga yaxshilangani aniqlandi, maksimal YuQS ko'rsatkichi esa 16,4 zarb/daqiqaga yaxshilangani aniqlandi. Pedagogik tadqiqot natijalari tadqiqotning boshi va oxiridagi olingan ko'rsatkichlar bo'yicha farqlari qiyosiy tahlil ko'rinishida 8-jadvalda berilgan.

9-jadval

"Pyramid" kompleksini tadqiqot oxirida TG ishtirokchilari amaliy sport mashg'ulotlarida qo'llanganlik bo'yicha ko'rsatkichlari (n=12)

Marta $X \pm \sigma$		YuQS o'rtacha ko'rsatkichi (zarb/daq)	YuQS maksimal ko'rsatkichi (zarb/daq)
Talab	Bajardi		
1280 metr	1283 metr	167,14	177,54
600 soniya	601,43 soniya		

Tadqiqot boshida kompleksni o'rtacha bajarish masofasi 954,5 metrga teng bo'lgan bo'lsa, o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 179,36 zarb/daqga teng bo'lgan, maksimal YuQS ko'rsatkichi 191,43 zarb/daqga tengligi aniqlangan.

Tadqiqot oxirida kompleksni o'rtacha bajarish masofasi 1283 metrga teng bo'lganligi aniqlangan, shunga mos ravishda o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 167,14 zarb/daqga teng bo'lgan, maksimal YuQS ko'rsatkichi 177,54 zarb/daqga teng (9-jadval).

"Pyramid" kompleksi bo'yicha biz tomonimizdan o'tkazilgan pedagogik tadqiqotning boshida o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 175,2 zarb/daqga teng bo'lgan bo'lgan bo'lsa, maksimal YuQS ko'rsatkichi 186,7 zarb/daqga tengligi aniqlangan va tadqiqot boshida ishlanmani o'rtacha bajarish masofasi 1220 metrga teng bo'lgan bo'lsa tadqiqot oxirida o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 168,7 zarb/daqga teng bo'lgan bo'lgan bo'lsa, maksimal YuQS ko'rsatkichi 179,3 zarb/daqga tengligi aniqlangan va tadqiqot oxirida ishlanmani o'rtacha bajarish masofasi 1280 metrga teng bo'lganligi aniqlangan.

10-jadval

Tajriba guruhining "Pyramid" kompleksi bo'yicha tadqiqot boshida va tadqiqot so'ngidagi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

T/r	Nazorat testlari "Pyramid"	Tadqiqot boshida (n=12)			Tadqiqot oxirida (n=12)			AO'	NO'	t	P
		X	σ	V, %	X	σ	V, %				
1.	"Pyramid" kompleksini bajarish (marta)	474,43	56,81	11,97	601,43	70,84	11,78	127,00	26,77	4,84	<0,001

2.	YuQS o'rtacha ko'rsatkichi	179,36	17,83	9,94	167,14	16,12	9,64	12,22	6,81	1,76	>0,05
3.	YuQS maksimal ko'rsatkichi	191,46	16,83	8,79	177,54	15,13	8,52	13,92	7,27	2,13	<0,05

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ishlanmaning samaradorligi matematik statistik usulda tahlil qilish orqali aniqlandi va pedagogik tadqiqot boshidagi va pedagogik tadqiqot oxiridagi yuklamani bajarish masofasi farqi 60 metrni tashkil etgan bo'lsa, o'rtacha YuQS ko'rsatkichining farqi 6,8 zarb/daq ga tengligi aniqlandi, maksimal YuQS ko'rsatkichidagi oraliq farqi 7,4 zarb/daq ga yaxshilangani aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Pyramid" kompleksining bajarish shiddati futzal hakamlarining musobaqadagi o'yin faoliyati davomida o'yin maromiga tayyorlashda o'z samarasini isbotladi. Biz tomonimizdan o'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari va uning qiyosiy tahlili 10-jadvalda keltirilgan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tayyorgarlik mikrosiklining birinchi kunida "Variative shuttle" kompleksi futzal hakamlarining maxsus chidamkorlik darajasini oshirish maqsadida qo'llanilib, unda umumiy harakatlanish hajmi 1200 metr bo'lib, 100 metr masofa tezlanib yugurishdan, 200 metr masofa turli shiddatli haraktlar bilan bajarish, 75 metr masofa chap tomonlama harakatlanish, 75 metr o'ng tomonlama harakatlanish, 50 metr masofa orqamachasiga yugurish harakatlaridan tashkil topgan.

Mikrosikl davomida hakamlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun turli mashqlarda maqsadli foydalanilgan. Mikrosiklning 5-kunida "Pyramid" kompleksi futzal hakamlarining umumiy chidamkorligini oshirish maqsadida qo'llanilgan. "Pyramid" kompleksini bajarish uchun 7,30 daqiqa shiddatli yugurish, 2,30 daqiqa o'rta maromda harakatlanish bilan jami 10 daqiqa vaqt sarflangan hamda umumiy harakatlanish hajmi 1280 metrni tashkil etgan. Mikrosiklning umumiy hajmi 21200 metrni tashkil etgan bo'lsa, undan shiddatli harakatlar hajmi 3740 metrga teng bo'ldi.

Keyingi mikrosiklning birinchi kunida 5 sikldan iborat bo'lgan "Shuttle" kompleksi qo'llanilgan. Ushbu kompleksni davomiyligi 10 daqiqaga teng bo'lib turli xil (40 metrdan 10 metrgacha) masofalarda shiddatli mokisimon yugurish haraktlardan tashkil topgan va har bir siklda shiddatli yuklama 2 daqiqaga teng bo'lgan. Har bir shiddatli takroriy seriyadan so'ng dam olish oralig'i 3 daqiqaga teng bo'lib, umumiy harakatlanish hajmi 2050 metrni tashkil etgan. Shunda 1 siklining harakatlanish hajmi 410 metr bo'lib undan 380 metr masofasi tezlanib yugurishdan, 30 metr oraliq interval masofaga yurish harakatlaridan tashkil topgan. "Shuttle" kompleksi qo'llanilgan mikrosiklning umumiy hajmi 22050 metrni tashkil etgan bo'lsa, undan shiddatli harakatlar hajmi 4440 metrga teng bo'ldi.

11-jadvalda ko'rinib turibdiki futzal hakamlarining tezkorlik, maxsus chidamkorlik va funksional tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan uchta kompleks kombinatsion tarzda qo'llanilgan

va ularning mavsum davomidagi o'yinlardagi harakatlari videotahlil qilingan va olingan ko'rsatkichlar asosida maxsus harakatlarni shiddatli maromda bajarish maqsadida jismoniy vositalar shakllanib mikrosikllarda ratsional taqsimlangan.

Ishlab chiqilgan “Variative shuttle”, “Shuttle” va “Pyramid” maxsus komplekslarini kombinatsion tarzda qo‘llanilgan hamda jismoniy yuklamalari ratsional taqsimlangan mikrosikl

Hafta kunlari	Mashg‘ulotlar	Umumiy hajm	Umumiy shiddat hajmi
Dushanba	Chigalyozdi mashqi 1000 metr, URM 10 daqiqa, “Variative shuttle”ni qo‘llash, (35 metr shiddatli yugurish, chap yon bilan 5 metr harakatlanish va ortga o‘ng yon bilan 5 metr ortga xaraktalanish, 35 metr shiddatli yugurish, 5 metr orqamachasiga, 5 metr chap yon bilan xaraktalanish, 10 metr tezlanib mokisimon va 20 metrqa tezlanib qaytish), yakunlovchi yugurish 1000 metr, 10 daqiqa cho‘zilish mashqlari.	3200 metr	120m x 10 ta sikl 1200 m
Seshanba	Kross yugurish 4000 metr, maxsus yugurish mashqlari, yakunlovchi yugurish 400 metr, cho‘zilish mashqlari 10 daqiqa.	4600 metr	20m x10marta 200 metr
Chorshanba	Chigalyozdi mashqi 1000 metr, URM, maxsus yugurish mashqlari, sprint qisqa masofalarga yugurish 4x10m, 4x20m, 4x30m, 4x40 m masofaga sprint yugurish, yakunlovchi yugurish 1000 metr, 10 daqiqa cho‘zilish mashqlari.	2500 metr	10m x10 marta=100m 40+80+120+160=400 m 500 m
Payshanba	Chigalyozdi mashqi 1000 metr, URM 10 daqiqa, maxsus yugurish mashqlari, zinada mashqlar (zinalar soni 20 ta zina uzunligi 6 metr, yugurib chiqish 2marta, o‘ng va chap tomon bilan chiqish 4 marta, sakrab chiqish 2 matra, sakrab tushish 2 marta) rezina bilan turli harakatli mashqlarni bajarish, yakunlovchi yugurish 1000 metr.	2420 metr	20m x10marta=200 m 6m x 10 marta=60m 260m
Juma	Chigalyozdi mashqi 1000 metr, URM 10 daqiqa, “Pyramid”ni qo‘llash, 20 metrli masofada dam olish oralig‘i 10 soniya bo‘lgan vaqt bilan 20 metrdan 160 metrgacha mokisimon tarzda yugurish va 160 metrdan 20 metrqa qadar o‘rta maromda YuQS 160-170 dan yuqori zar/daq yugurish, yakunlovchi yugurish 1000 metr.	3280	10m x10marta=100 m “PYRAMID” 1280m 1380m
Shanba	Chigalyozdi mashqi 1000 metr, URM 10 daqiqa, UJT mashg‘ulotlarini bajarish, turli og‘irliklar bilan ishlash, UJT mashg‘ulotning davomiyligi 40 daqiqa, yakunlovchi yugurish 1000 metr.	2200	20m x10marta=200 m
Yakshanba	Faol dam olish	3000m	-
1-mikrosikl yakunida jami (metrda)»Variative shuttle» qo‘llanganda		21200m	3740m
2-mikrosikl yakunida jami (metrda) “Shuttle” qo‘llanganda		22050m	4440m

Birinchi va ikkinchi mikrosikllarning beshinchi kunida Ushbu ishlab chiqilgan mikrosikllar futzal hakamlarining musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish davrida o‘rnatilgan tartibda qo‘llanilgan, ammo musobaqa oldi davrida oxirgi ikkita mikrosikllarda “Pyramid” kompleksi umuman qo‘llanilmagan va “Variative shuttle” hamda “Shuttle” komplekslari kombinatsion tarzda futzal hakamlarining maxsus chidamkorlik va tezkorlikka alohida e‘tibor qaratilgan holda amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan kompleksning samaradorligi matematik statistik usulda tahlil qilish orqali aniqlandi va pedagogik tadqiqot boshidagi va pedagogik tadqiqot oxiridagi yuklamani bajarish masofasi farqi 127,00 metrni tashkil etgan bo‘lsa, o‘rtacha YuQS ko‘rsatkichining farqi 12,22 zarb/daq ga tengligi aniqlandi, maksimal YuQS ko‘rsatkichidagi oraliq farqi 13,92 zarb/daq ga yaxshilangani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Pyramid” kompleksining bajarish shiddati futzal hakamlarining musobaqadagi o‘yin faoliyati davomida o‘yin maromiga tayyorlashda o‘z samarasini isbotladi. Mazkur o‘tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari va uning qiyosiy tahlili 11-jadvalda keltirilgan.

Ishlab chiqilgan dastur futzal hakamlarini o‘yin davomidagi ish faoliyatini videotahlil va mutaxassislar fikri, test sinovlarining natijalari hamda turli ko‘rsatkichlar asosida tuzilgan. Ushbu dastur yillik sikldan iborat bo‘lib bir necha mezosikl va mikrosikllarga bo‘lingan. Tuzilgan mikrosikllar bo‘yicha jismoniy yuklamalarni bajarilish rejimi hamda uslubiyati inobatga olingan. Ushbu dasturning avzallik tomoni shundaki O‘zbekishton professional futbol ligasi tomonidan tuzilgan musobaqa taqvim rejasi asosida tuzilib unda yuklamalar ratsional taqsimlangan. Yuklamalarni optimal taqsimlashda hakamlarning pastki tana qismi pastural mushaklarini hamda tananing yuqori qismiga beriladigan mashqlardan iborat bo‘lganligi sababli o‘z samaradorligini amaliyotda ko‘rsatdi. Shuni aytish lozimki dasturdagi ishlab chiqilgan yuklamalarni mikrosikllarga bo‘lib turli kombinatsion tarzda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Variative Shuttle”, “Shuttle” va “Pyramid” komplekslari kombinatsion o‘zgaruvchan tarzda qo‘llanilib bir mikrosiklda parabola, keyingi mikrosiklda zinasimon tarzda yuklamalar ratsional taqsimlangan. Taqsimlangan yuklamalar kombinatsion jismoniy vositalar yordamida bir biriga qarshi kelmagan xolda tuzilib musobaqa davriga pik holatiga futzal hakamlarning tayyorgarlik darajasini olib chiqishda o‘z samarasini berdi.

12-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining o‘yin jarayonida optimal pozitsiyalarni tanlash bo‘yicha tadqiqot boshida va tadqiqot oxirida olingan indikatorlarning qiyosiy tahlili

T/r	Guruh	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			AO‘	NO‘	t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %				

Umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar indikatorlar soni	NG (n=12)	30,27	2,93	9,68	32,43	3,06	9,44	2,16	7,14	1,77	>0,05
	TG (n=12)	30,88	3,08	9,96	34,41	3,15	9,15	3,53	11,43	2,78	<0,05
Optimal pozitsiyalar ni egellay olganlik indikatorlar soni	NG (n=12)	21,84	2,33	10,67	23,93	2,49	10,41	2,09	9,57	2,12	<0,05
	TG (n=12)	21,53	2,36	10,97	25,29	2,56	10,12	3,76	17,46	3,74	<0,01
Optimal pozitsiyalar ni egellay olmaganlik indikatorlar soni	NG (n=12)	8,47	0,74	8,68	7,87	0,66	8,42	0,60	7,08	2,10	<0,05
	TG (n=12)	8,65	0,77	8,94	7,58	0,62	8,13	1,07	12,37	3,75	<0,01

Pedagogik tadqiqot boshida futzal hakamlarining o'yin davomida optimal pozitsiyalarni tanlash qobiliyatlarini aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhleri 6 ta o'yinda o'z hakamlilik faoliyatini amalga oshirishda (NG-6 ta o'yin, TG-6 ta o'yin jami 12 ta o'yin). Ushbu musobaqalarda olingan videotahlil usuli orqali o'yin jarayonida futzal hakamlarining bahsli vaziyatlarga o'z vaqtida etib borib ochiq oydin va vaziyatga nisbatan tezkor qaror qabul qilishga optimal pozitsiyalarni tanlash va tanlay olmagan vaziyatlar soni aniqlangan (12-jadval).

Tadqiqot boshida nazorat guruhining olingan natijalari tajriba guruhining natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinganda t-Student mezoni bo'yicha deyarli farqi yo'qligi va guruhlarining natijalari tengligi aniqlangan va $30,27 \pm 2,93$ vaziyatlardan nazorat guruhining ko'rsatkichlari optimal pozitsiyalarni $21,84 \pm 2,33$ marta tanlashga erishilgan. Shundan o'rtacha $8,47 \pm 0,74$ marotaba optimal pozitsiyalarni tanlashga erishilmagan. Ushbu ko'rsatkich o'yinlarni samarali hakamlilik qilish koeffitsiyentini pasaytirgan va o'yin natijalariga ta'sir etgan. Tadqiqot boshida tajriba guruhining ko'rsatkichlari optimal pozitsiyani tanlashda jami $30,88 \pm 3,08$ vaziyatlar sodir bo'lgan bo'lsa, undan $21,53 \pm 2,36$ marotaba optimal pozitsiyalarni tanlash amalga oshirilgan va $8,68 \pm 0,77$ marta optimal pozitsiyalarni tanlashga erishilmagan. Tajriba va nazorat guruhlarining ko'rsatkichlaridagi oraliq farqi deyarli yo'qligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik tadqiqotning oxirida yaratilgan 3 ta komplekslarni tayyorgarlik jarayonida va mashg'ulotlar amaliyotida tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida qo'llanilib yillik tayyorgarlik davriga ishlab chiqilgan tayyorgarlik dasturiga tatbiq etilgan va o'z samarasini musobaqalarda ko'rsatgan. Pedagogik tadqiqot oxirida futzal hakamlari tomonidan optimal pozitsiyalarni tanlash bo'yicha indikator sifatida pedagogik tadqiqot boshida har bir guruh 6 tadan o'yinda hakamlilik qilgan

bo'lsa tadqiqot so'ngida ham ishlab chiqilgan dasturni samaradorligini aniqlashda 6 ta o'yinda o'z hakamlik faoliyatini amalga oshirishdi. Tajriba va nazorat guruhining tadqiqot oxirida (jami 12 ta o'yin) musobaqadagi o'yinlar videotahlil qilinganda quyidagi natijalar olingan. Tadqiqot oxirida nazorat guruhining ko'rsatkichlari umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar indikatorlar soni $32,43 \pm 3,06$ martani tashkil etgan bo'lsa, shundan $23,93 \pm 2,49$ marta optimal pozitsiyalarni egellay olgan, optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik darajasi bo'lsa $7,87 \pm 0,66$ ga teng bo'lgan.

Tadqiqot oxirida tadqiqot guruhining ko'rsatkichlari umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar indikatorlar soni $34,41 \pm 3,15$ martani tashkil etgan bo'lsa, shundan $25,29 \pm 2,56$ marta optimal pozitsiyalarni egellay olgan, optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik darajasi bo'lsa $7,58 \pm 0,62$ ga teng bo'lganligi aniqlandi. Olingan natijalarning absolyut farqi dinamikasi aniqlanganida nazorat guruhining umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar soniga nisbatan 2,16 ni tashkil etgan, optimal pozitsiyalarni egellay olganlik darajasi esa 2,09 ni hamda optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik absolyut farqi 0,60 ni tashkil etgan. Tadqiqot guruhi a'zolarining absolyut farqi dinamikasi aniqlanganida umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar soniga nisbatan 3,53 ni tashkil etgan, optimal pozitsiyalarni egellay olganlik darajasi esa 3,76 ni hamda optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik absolyut farqi 1,07 ni tashkil etganligi aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhlarining ko'rsatkichlaridagi farqi ishonarli darajada farqliligi aniqlangan.

Tadqiqot guruhi a'zolarining optimal pozitsiyalarni egellay olganlik natijalari t-student mezonini bo'yicha ko'rsatkich 3,74 ga teng bo'lib ishonchlilik darajasi $p < 0,01$ ni tashkil etdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan "Variative Shuttle", "Shuttle", "Pyramid" va yillik tayyorgarlik dasturining samaradorligi pedagogik tadqiqot oxirida o'tkazilgan 6 ta o'yin yakunida musobaqa davrida futzal hakamlarining shiddatli o'yinlarni maxsus ishchanlik qobiliyatini pasaytirmagan xolda o'z faoliyatini samarali olib borishda va optimal pozitsiyani tanlashga erishilganligi o'zining ilmiy isbotini topdi.

13-jadval

Pedagogik tadqiqot oxirida TG va NG futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlovchi test natijalari statistik xarakteristikalarining solishtirma natijalari

T/r	Nazorat testlari	Guruh	Tajriba boshida (n=12)			Nazorat oxirida (n=12)			AO'	NO'	t	P
			\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %				
1.	2×20 m.ga yugurish 1-urinish (3.30 s)	NG	3,24	0,28	8,65	3,01	0,26	8,55	0,23	7,20	2,12	<0,05
		TG	3,25	0,29	8,98	2,84	0,23	8,13	0,41	12,62	3,81	<0,001
2.	2×20 m.ga yugurish 2-urinish	NG	3,27	0,32	9,63	3,01	0,29	9,53	0,26	7,95	2,11	<0,05
		TG	3,22	0,32	9,97	2,84	0,26	9,15	0,38	11,80	3,19	<0,01

	(3.30 s)											
3.	CODA test (10.00 s)	NG	9,69	0,84	8,67	9,10	0,78	8,57	0,59	6,06	1,77	>0,05
		TG	9,79	0,88	8,95	8,8	0,71	8,11	0,99	10,11	3,03	<0,01
4.	ARIET test (9.50 s)	NG	600,49	57,88	9,64	643,47	61,53	9,56	42,98	7,16	1,76	>0,05
		TG	595,26	59,27	9,96	663,41	60,53	9,12	68,15	11,45	2,79	<0,05

Tadqiqotimiz oxirida 13-jadvalga asosan tadqiqot guruhi a'zolari Sprint 2x20 test natijalarida ko'rinib turibdiki futzal hakamlari 20 metr masofani 2 marotaba yugurib o'tgan, shundan tajriba guruhi vakillari 1-marotaba bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $2,84 \pm 0,23$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa 2-marotaba $2,84 \pm 0,26$ soniyaga teng bo'lganligi aniqlandi. Nazorat guruhi vakillari esa ushbu testni 1-marotaba bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $3,01 \pm 0,26$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa 2-marotaba $3,01 \pm 0,29$ soniyaga teng bo'lganligi aniqlandi. Shunda olingan natijalardan ko'rinib turibdiki tadqiqot va nazorat guruhidagi ko'rsatkichlar bir biridan sezilarli darajada farq qilayotganligi matematika statistika usuli yordamida aniqlandi.

CODA test natijalari bo'yicha shuni ko'rishimiz mumkinki futzal hakamlari jami 36 metr masofani 10 metrga tezkor yugurish va 8 metr masofaga mokisimon tarzda yonlamachasiga haraktlanib va 10 metr masofa tezkor yugurish orqali start/finish chizig'iga 10 soniya davomida etib kelishlari talab etiladi. Tadqiqot oxirida tajriba guruhi vakillari mazkur testni bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $8,8 \pm 0,71$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhi vakillari ushbu testni bajarganda ularning o'rtacha ko'rsatkichi $9,10 \pm 0,78$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Tadqiqot va nazorat guruhlari ishtirokchilarining o'rtacha natijalari tadqiqot guruhi a'zolari mazkur testni sezilarli darajada yaxshi topshirishganini ko'rishimiz mumkin.

ARIET test bo'yicha futzal hakamlari FIFA tomonidan qo'yilgan me'yorni bajarishdi, pedagogik tadqiqot oxirida nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari $643,47 \pm 61,53$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu vaqtda 1380 ± 65 metr masofa bosib o'tildi. Pedagogik tadqiqot oxirida tadqiqot guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari esa $663,41 \pm 60,53$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu vaqtda 1356 ± 45 metr masofani bosib o'tishdi. Ushbu ko'rsatkichlar shuni namoyish etmoqdaki pedagogik tadqiqot oxirida tadqiqot va nazorat guruhlari orasidagi farqi tadqiqot guruhi a'zolarining ko'proq masofani bosib o'tganligidan dalolat beradi.

XULOSALAR

1. Ilmiy metodik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida futzal hakamlarining o'yin jarayonida optimal pozitsiyalarni tanlashda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati bo'yicha asosan chet el mualliflari ilmiy ishlar olib borib unda pozitsiyalar tanlashda texnika va taktika jihatlariga urg'u berilgan. Mahalliy olimlarimiz tomonidan ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmagan. Ushbu muammoning dolzarbligini aniqlash maqsadida 134 ta manbalar tahlil qilinib uning ichida 37 tasi chet el olimlaridan o'rin olgan, lekin o'rganilgan va tahlil qilingan adabiyotlarda futzal hakamlarining optimal pozitsiyani tanlashda

jismoniy tayyorgarlik darajasi muhimligi to'liq ochib berilmaganligi sababli ushbu masala dolzarb ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

2. Futzal hakamlarining o'yinda talab etiladigan jismoniy tayyorgarlik va funksional tayyorgarlik darajalari yillik tayyorgarlik sikldagi dasturlardagi yuklamalar mos ravishda emasligi hamda FIFA tomonidan ishlab chiqilgan "ARIET", "CODA" va "SPRINT" 2x20 metr kabi testlar ularning yuqorida ko'rsatib o'tilgan darajalarni aniqlashda ishonchli darajada emasligi va zamonaviy futzal o'yinidagi shiddatli harakatlarga mos emasligi aniqlandi.

3. Futzal hakamlarining maxsus chidamkorlik darajasini oshirish maqsadida biz tomonimizdan "Variative shuttle" kompleksi yaratildi va hakamlarning amaliy sport mashg'ulotlariga tatbiq etilib yillik tayyorgarlik siklidagi dasturda qo'llanildi. "Variative shuttle" kompleksi 10 sikldan iborat bo'lib, umumiy davomiyligi 10 daqiqaga teng bo'lgan turli shiddatli, kombinatsion va variativ (yonlamachasiga, orqamachasiga yugurish, tezlanish, mokisimon yugurish) harakatlardan iborat bo'lib har bir siklning davomiyligi 1 daqiqaga teng bo'lib, shundan shiddatli yuklama 25 soniya, dam olish oralig'i 35 soniyadan iborat. Ushbu "Variative shuttle" kompleksi 40 metrdan iborat bo'lgan futzal maydoni o'lchamiga teng masofada hakamlar tomonidan bajariladi. Unda start/finish bir joyda joylashadi va hakamlar yuqori start holatidan signal orqali start oladi. Tadqiqot oxirida talabga binoan "Variative shuttle" kompleksini 10 marotaba 10 daqiqa davomida bajarish me'yoridan 9,81 o'rtacha ko'rsatkichi amalga oshirilgan va o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 166,14 zarb/daqqa teng bo'lgan bo'lsa maksimal BQS ko'rsatkichi 186,17 zarb/daqqa erishildi.

4. Futzal hakamlarining o'yin davomida tezkorligini oshirish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Shuttle" kompleksi qo'llanilgan, ushbu kompleksni afzalligi shundaki yuqori shiddatli va qisqa muddatli yuklamadan iborat bo'lib dam olish oralig'i minimal darajaga teng bo'lib hakamlarning tezkorligini turli tezlanishlar orqali rivojlantirib o'yin maromiga moslashish maqsadida yillik tayyorgarlik dasturida amaliy sport mashg'ulotlarida qo'llanilgan. Tadqiqot boshida va tadqiqot oxiridagi funksional ko'rsatkichlari ushbu testda quyidagicha bo'lgan tadqiqot boshida futzal hakamlari ushbu testni to'lib amalga oshirmagan bo'lsa bir mikrosiklida kombinatsion tarzda qo'llanilib funksional holatini oshirishga erishildi. Shunda o'rtacha YuQS ko'rsatkichi 172,1 zarb/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa maksimal YuQSning ko'rsatkichi 181,43 zarb/daqiqaga teng ekanligini aniqlangan. Ushbu olingan natijalarning ko'rsatkichlari ikki taymli shiddatli o'yinda tezlanishlar sonini tushirmagan xolda hakamlar faoliyatini olib borishida o'z samarasini ko'rsatdi.

5. Futzal hakamlarining "ARIET" testi bo'yicha sinaganimizda tadqiqot boshidagi ko'rsatkichlar tajriba va nazorat guruhlaridagi olingan natijalar orasida deyarli farq aniqlanmadi. FIFA tomonidan ishlab chiqilgan ushbu test futzal hakamlarining umumiy chidamkorligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, lekin "ARIET" testi zamonaviy futzal o'yinining shiddati va davomiyligi bo'yicha hakamlarning jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini aniq aniqlab beruvchi test sifatida ishonarli darajada emasligi ta'kidlandi. Futzal hakamlarining umumiy

chidamkorlik darajasini oshirishda biz tomonimizdan aerob, aerob-anaerob hamda anaerob shiddat zonalarida ishchanlik darajasini tushirmagan xolda o'yinni samarali olib borishda "Pyramid" kompleksi yaratildi. Ushbu kompleksni afzalligi boshqa testlardan ajralib turishi 20 metrdan progressiv tarzda 160 metrgacha masofani o'sib borishi hamda 160 metrdan regressiv usulda masofani kamayib borishi bilan bog'liq bo'lib umumiy chidamkorlik darajasini rivojlantirishga samarali yuklamalardan biri deb amaliyotda o'z isbotini topdi.

6. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Variative Shuttle", "Shuttle" va "Pyramid" komplekslari kombinatsion tarzda boshqa yuklamalar bilan qo'llanilib turli tayyorgarlik mikrosikllariga taqsimlangan. yillik tayyorgarlik siklidagi tayyorgarlik davrida bir mikrosiklning boshida «Variative shuttle» kompleksi qo'llanilgan bo'lsa ushbu mikrosiklning oxirida "Pyramid" kompleksi qo'llanilgan, keyingi mikrosiklning boshida kombinatsion tarzda "Shuttle" qo'llanilgan bo'lsa ushbu mikrosiklning oxirida "Pyramid" kompleksi qo'llanilgan. yillik tayyorgarlik dasturi ishlab chiqilishida musobaqa davri ham inobatga olinib musobaqa davridagi oxirgi 2 ta mikrosiklda "Variative shuttle" kombinatsion tarzda "Shuttle" kompleksi bilan qo'llanilgan.

7. Tadqiqot boshida nazorat guruhining olingan natijalari tajriba guruhining natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinganda t-Student mezoni bo'yicha deyarli farqi yo'qligi va guruhlarining natijalari tengligi aniqlangan va $30,27 \pm 2,93$ vaziyatlardan nazorat guruhining ko'rsatkichlari optimal pozitsiyalarni $21,84 \pm 2,33$ marta tanlashga erishilgan. Shundan o'rtacha $8,47 \pm 0,74$ marotaba optimal pozitsiyalarni tanlashga erishilmagan. Ushbu ko'rsatkich o'yinlarni samarali hakamlilik qilish koeffitsiyentini pasaytirgan va o'yin natijalariga ta'sir etgan. Tadqiqot boshida tajriba guruhining ko'rsatkichlari optimal pozitsiyani tanlashda jami $30,88 \pm 3,08$ vaziyatlar sodir bo'lgan bo'lsa, undan $21,53 \pm 2,36$ marotaba optimal pozitsiyalarni tanlash amalga oshirilgan va $8,68 \pm 0,77$ marta optimal pozitsiyalarni tanlashga erishilmagan.

8. Olingan natijalarning absolyut farqi dinamikasi aniqlanganida nazorat guruhining umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar soniga nisbatan 2,16 ni tashkil etgan, optimal pozitsiyalarni egellay olganlik darajasi esa 2,09 ni hamda optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik absolyut farqi 0,60 ni tashkil etgan. Tadqiqot guruhi a'zolarining absolyut farqi dinamikasi aniqlanganida umumiy sodir bo'lgan vaziyatlar soniga nisbatan 3,53 ni tashkil etgan, optimal pozitsiyalarni egellay olganlik darajasi esa 3,76 ni hamda optimal pozitsiyalarni egellay olmaganlik absolyut farqi 1,07 ni tashkil etganligi aniqlandi.

9. O'tkazilgan pedagogik natijalarga ko'ra futzal hakamlarining o'yin jarayonida optimal pozitsiyalarni tanlashda muhim bo'lgan bo'lgan jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada oshirilgan va ularning samarali o'yin olib borishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shunda futzal hakamlarining optimal pozitsiyani pedagogik tajriba oxirida to'g'ri tanlashda va bahsli vaziyatlarga tezkorlik bilan etib borib o'z vaqtida oqilona qaror qabul qilishda jismoniy tayyorgarlik darajasi o'ta muhimligi ilmiy-amaliy tadqiqotimizda o'z isbotini topdi. Xususan: ishlab chiqilgan yuklamalarni ratsional taqsimlab yillik tayyorgarlik siklida qo'llash

natijasida futzal hakamlari tomonidan optimal pozitsiyani tanlash ko'rsatkichlari yaxshilangan va t – student mezoni bo'yicha $P < 0,01$ statistik ishonchli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Biz tomonimizdan yaratilgan komplekslar va ishlab chiqilgan yillik tayyorgarlik dasturi amaliyotda o'z samarasini isbotladi.

10. ARIET test bo'yicha futzal hakamlari FIFA tomonidan qo'yilgan me'yorni bajarishdi, pedagogik tadqiqot oxirida nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari $643,47 \pm 61,53$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu vaqtda 1380 ± 65 metr masofa bosib o'tildi. Pedagogik tadqiqot oxirida tadqiqot guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari esa $663,41 \pm 60,53$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu vaqtda 1356 ± 45 metr masofani bosib o'tishdi. Ushbu ko'rsatkichlar shuni namoyish etmoqdaki pedagogik tadqiqot oxirida tadqiqot va nazorat guruhlari orasidagi farqi tadqiqot guruhi a'zolarining ko'proq masofani bosib o'tganligidan dalolat beradi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. "Variativ Shuttle" testini qo'llashdan oldin to'piq, tizza, tos bo'g'imlarini chigalyozdi mashqlar yordamida qizdirib olish lozim. Chigalyozdi mashqlari yordamida qizdirib olish maqsadi "Variative shuttle"dagi turli xatti harakatlarda toliqmaslik hamda jarohat olmaslik uchun qo'llaniladi. «Variative shuttle» kompleksi turli shiddatli yugurish harakatlanishlardan iborat bo'lib, futzal hakamlarining maxsus chidamkorlik darajasini oshiradi.

2. "Shuttle" kompleksini qo'llashda turli shiddatli harakatlarda, tezlanishda va to'xtalishlarda optimal nafas olish tavsiya etiladi. Chunki ushbu shiddatli yuklamani bajarishda noto'g'ri nafas olganda toliqish asoratlari tez yuzaga chiqadi va mashg'ulot davomiyligi to'liq bo'lmaydi. To'liq bajarilmagan ushbu yuklama futzal hakamlarini tezkorligini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Futzal hakamlarning umumiy chidamkorlik darajasini oshirish maqsadida "Pyramid" kompleksini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlarga e'tibor berish lozim. 20 metrdan 160 metrgacha progressiv tarzda o'sib boruvchi masofada yugurish maromi saqlanib qolgan xolda maksimal YuQSDan 2-3% ga ko'tarilishi ruxsat etiladi ammo ushbu davomiylik va shiddatli yuklamani bajarishda YuQS ko'rsatkichi 3% dan yuqorilashib ketsa yuklamani bajarishni to'xtatish lozim, chunki ishlab chiqilgan yuklamalar davomiyligi 10 daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa futzal hakamlarining organizmi maksimal shiddatli zonada zo'riqishga olib kelishi mumkin.

4. Yillik tayyorgarlik siklida musobaqalarga tayyorlash jarayonida albatta stretching mashqlaridan kombinatsion tarzda foydalanish lozim, chunki ishlab chiqilgan komplekslarning shiddati yuqori bo'lgani sababli va tayyorgarlik mikrosikllarida 2 marotaba qo'llanilganligi natijasida mushaklarni me'yorida cho'zilishi va bo'shishi uchun turli amplitudali stretching mashqlarini har bir yuklamadan so'ng bajarilishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

АТАМУРАТОВ ХУШНУДБЕК ХАЙИТБАЕВИЧ

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ
СУДЕЙ ПО ФУТЗАЛУ ДЛЯ ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОЙ ПОЗИЦИИ В
ПРОЦЕССЕ ИГРЫ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Чирчик-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистана за № В2023.3.PhD/Ped5237

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.uzdjtsu.uz и информационно-образовательном портале “Ziyonet” по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Арзикулов Мукум Уралович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Коробейников Георгий Валеревич
Доктор биологических наук, профессор

Комилов Жамолиддин Каримжонович
Кандидат педагогических наук, доцент

Ведущий организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится “_____” “_____” 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлургов, дом 15. Тел: (0-370)-717-17-19,717-27-27, факс:(0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Дворец культуры 2-й этаж, малый зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за №211591) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик ул. Металлургов, дом 15.

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2024 года
(реестр протокола рассылки № _____ от “_____” _____ 2024 года)

Р.М. Маткаримов
Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней
д.п.н. (DSc), доцент

А.Н.Шопулатов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.п.н.(DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

